

O'RTA YOSH DAVRI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA
PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Bahodirova Shahnoza Rustam qizi

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

4-bosqich talabasi

E-mail: srustamova055@gmail.com

Talipova Feruza Tayirovna

Alfraganus universiteti Psixologiya kafedrasи v.b dotsenti

psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)

Annotatsiya. Maqolada muallif o'rta yosh davri oliy ta'limg tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etishni ilmiy yondashuv bilan asoslab bergan. O'rta yosh davrining psixologik xususiyati, O'rta yosh inqirozi va kasbiy faoliyatidagi to'htalishlar, o'zini anglash jarayonlari va emotsiyal o'zgarishlarga psixologik yordam ko'rsatish masalalari yoritib berilgan. Olimlarnin bu borada nazariy bilimlari ichiqlab berilgan.

Kalit so'zlar; O'rta yosh davri, oliy ta'limg, psixolik xizmat, munosabatlar, pedagoglar, maslahat.

ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ
В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ В ПЕРИОД
СРЕДНЕГО ВОЗРАСТА

Annotatsiya. Maqolada muallif o'rta yosh davri oliy ta'limg tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etishni ilmiy yondashuv bilan asoslab bergan. O'rta yosh davrining psixologik xususiyati, O'rta yosh inqirozi va kasbiy faoliyatidagi to'htalishlar, o'zini anglash jarayonlari va emotsiyal o'zgarishlarga psixologik yordam ko'rsatish masalalari yoritib berilgan. Olimlarnin bu borada nazariy bilimlari ichiqlab berilgan.

Kalit so'zlar; O'rta yosh davri, oliy ta'limg, psixolik xizmat, munosabatlar, pedagoglar, maslahat

FORMS OF ORGANIZING PSYCHOLOGICAL SERVICES IN HIGHER
EDUCATION INSTITUTIONS DURING MIDDLE ADULTHOOD

Abstract. In this article, the author scientifically substantiates the organization of psychological services in higher education institutions during middle adulthood. The paper highlights the psychological characteristics of middle age, the midlife crisis, stagnation in professional activity, processes of self-awareness, and emotional changes, as well as the issues of providing psychological assistance. Theoretical contributions of scholars in this field are thoroughly analyzed.

Keywords: middle age, higher education, psychological service, relationships, educators, counseling.

Kirish. Jamiyatimizda hozirgi kunga kelib ta’lim tizimiga bo’lgan talab ortib bormoqda. O’rta yosh davri psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish masalasi davlat miqyosida ham alohida e’tiborga olingan. So‘nggi yillarda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi 4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 iyuldagı 577-sonli “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori va 2020 yil 31 dekabrdagi 824-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori oliy ta’lim tizimida psixologik xizmatlarni yanada rivojlantirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda psixologlarga bo’lgan ehtiyoj ortib bormoqda, bu essa oliy ta’limlarda psixologiya yo‘nalishlarini ochilishiga sabab bo’ldi. Umumta’lim va o’rta maxsus ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning mavjudligi barchaga tushunarli va tabiiydir. Chunki bolalarning ulg‘ayishi, rivojlanishi mobaynida yuzaga keladigan psixik, psixofiziologik hamda shaxsiy o‘zgarishlarni muntazam kuzatib borish zarur. Bu jarayonda nafaqat bolaning o‘ziga, balki uning ota-onasiga, yaqinlariga, o‘qituvchilariga va sinfdoshlariga nisbatan yuzaga keladigan muammolarini samarali hal qilishda ham psixolog mutaxassisining yordami nihoyatda muhimdir. Psixologik xizmat bolaning sog‘lom shaxs sifatida shakllanishini qo’llab-quvvatlash, ijtimoiy-emosional muammolarini barvaqt aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Oliy ta’limda psixologik xizmat ko’rsatish qanday, oliy ta’limda psixologik xizmat kerakmi o’zi deb aytishimiz mumkin. Ha albatta oliy ta’limda psixologik xizmat ko’rsatish zarur. Chunki o’rta yosh davrida yaqinlashib kelayotgan talaba yoshlarda psixilogik xizmat, ya’ni ularni tashabbuskor, ish faoliyatida yuz beradigan ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlarga bardoshli kadrlarni tayyorlashda yordam beradi. Oliy ta’limdagi muhit talabarlarga keng fikrlovchi, salohiyat sohibi, kommunikatib muloqat shakllanishi va tarbiyani o’rgatadi.

Oxirgi o’n yildagi adabiyotlar tahlili ko‘rsatdiki, oliy o‘quv yurtlarida bunday xizmat:

- oliy ta’limni nafaqat professional, balki shaxsiy rivojlanuvchi qilish uchun;
- psixologik omillar hisobiga oliy ta’lim sifatini oshirish muammosini hal qilish uchun;
- zamonaviy oliy o‘quv yurti ta’limi didaktikasining xarajatlari va ziddiyatlarini bartaraf qilish uchun;
- talabalarning kasbiy tayyorlashda reproduktiv formatdan ijodiy rivojlanuvchi formatga o‘tishiga ko‘maklashish uchun;
- mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning kognitiv va shaxsiy tarkibiy qismlarini rivojlantirish darjasini o‘rtasidagi qarama-qarshilikni yo‘qotish uchun zarur.

Demak, oliy o‘quv yurtlarida psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi darkor:

- ✓ yoshlarning ustunlik qiluvchi ehtiyojlari va oliy o‘quv yurti tashkiliy tuzilmalarini ularni inkor etishi o‘rtasidagi ziddiyatni hal qilish;

✓ pedagoglar tarkibining talabalarning o‘quv faoliyatini ustunlik qiluvchi motivatsion asoslariga nisbatan illuziyalari va adashishlarini bartaraf qilish;

✓ talabalarning hayotiy faoliyatining yoshga oid muammolarini hal qilish va kasbiy ta’lim jarayoni o‘rtasida maqbul kelishuvni yaratishga talablarni psixologik jihatdan asoslash.

Oliy o‘quv yurtidagi psixologik xizmat mahalliy va xorijiy psixologiya fani hamda amaliyotining turli tarmoqlarida yaratilgan:

- shaxs rivojlanishining psixologik texnologiyalari,
- ta’lim, individuallashtirish psixologiyasi

zaxiralaridan zamonaviy ijtimoiy vaziyat nuqtai nazaridan tanqidiy yondashgancha foydalanishi mumkin.

Oliy o‘quv yurtlarida psixologik xizmatni tashkil etish uchun:

– oliy o‘quv yurti psixologik xizmati faoliyatini nazariy va tashkiliy asoslarini ishlab chiqish;

– uning faoliyatini idora qiluvchi normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

– oliy o‘quv yurtlari psixologik xizmatlari mutaxassislari ishini nazorat qiluvchi uslubiy markazlarni yaratish;

– oliy o‘quv yurtlari psixologik xizmatlari mutaxassislari uchun ixtisoslashtirilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

– ish tajribasini o‘rganish va almashinishi imkonini beruvchi yig‘ilishlar, seminarlar, davra suhbatlarini muntazam ravishda o‘tkazish;

– psixologik xizmatlar mutaxassislari faoliyatini ilmiy-uslubiy ta’minalash (xizmat ishi uchun zaruriy ma’lumotlardan iborat o‘quv-uslubiy qo’llanmalarni chop etish, shuningdek, uslubiy ma’lumotlar, tashhisiy metodikalar, ishlanmalar, hujjatlar va boshqalar joylashtiriladigan saytni yaratish) lozim [1, 12].

Oliy o‘quv yurtida psixologik kuzatuvni amalga oshirishning uch bosqichini ajratish mumkin. Birinchi bosqichda – o‘quv faoliyatiga moslashishda – u yoki bu kasbiy faoliyatga qiziqish va moyillik, talabalarda motivatsiyaning shakllanganligi, umumiyo rivojlanish darajasi, maxsus xislatlarning mavjudligi va boshqalar aniqlanadi. Bundan tashqari, har bir talabaga individual ta’limiy traektoriyasini qurishda yordam ko‘rsatiladi.

Ikkinci bosqich – ixtisoslashuvda – o‘quv va bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatga ixtisoslashuv, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini aniqlash tanlovi nazarda tutiladi.

Uchinchi bosqichda – professionallashuvda – kasbiy ahamiyatga ega xislatlarni tashxis qilish, shaxsiy kasbiy maqsad va istiqbollarni qurishda va amalga oshirishda, karyerali o‘sish dasturini ishlab chiqishda yordamlashish, o‘quv va kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini idora qilish va o‘z-o‘zini boshqarishga qobiliyatni rivojlantirish amalga oshiriladi [2, 10-11].

M.B. Kaltaeva олий таълим муассасаларидаги psixologik xizmatning tashkiliy darajalarini aniq ko‘rsatib beradi. U xizmatni faqat umumiyo darajada emas, balki turli bosqichlarda tashkil etish zarurligini ta’kidlaydi:

1. Tashkilot (umumiy) darajasi – butun universitet miqyosida psixologik xizmat faoliyati yo‘lga qo‘yilishi. Bunda barcha subyektlar: talabalar, o‘qituvchilar, ma’muriyat bir butun tizimda qamrab olinadi.

→ Bu daraja strategik ahamiyatga ega bo‘lib, umumiy psixologik muhitni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.

2. Bo‘linma darajasi – fakultet, kafedra yoki alohida bo‘limlar kesimida psixologik xizmatni tashkil etish.

→ Bu esa ancha tor doirada, lekin muammolarni tezroq va aniqroq hal qilish imkonini beradi.

3. Dastlabki jamoa darajasi – talabalar guruhi yoki kichik jamoalarda psixologik kuzatuv va maslahat ishlarini olib borish.

→ Talabalarning jamoaviy moslashuvi, ijtimoiy-psixologik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

4. Individual daraja – talaba, o‘qituvchi, ota-onasi yoki alohida shaxslar bilan ishslash.

→ Shaxsiy muammolarni yechishda eng samarali daraja bo‘lib, individual konsultatsiya va psixologik yordamni qamrab oladi.

Xulosा. M.B. Kaltaeva олий таълим муассасаларидағи psixologik xizmatning tashkiliy darajalarini aniq ko‘rsatib beradi. U xizmatni faqat umumiy darajada emas, balki turli bosqichlarda tashkil etish zarurligini ta’kidlaydi:

1. Tashkilot (umumiy) darajasi – butun universitet miqyosida psixologik xizmat faoliyati yo‘lga qo‘yilishi. Bunda barcha subyektlar: talabalar, o‘qituvchilar, ma’muriyat bir butun tizimda qamrab olinadi.

→ Bu daraja strategik ahamiyatga ega bo‘lib, umumiy psixologik muhitni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.

2. Bo‘linma darajasi – fakultet, kafedra yoki alohida bo‘limlar kesimida psixologik xizmatni tashkil etish.

→ Bu esa ancha tor doirada, lekin muammolarni tezroq va aniqroq hal qilish imkonini beradi.

3. Dastlabki jamoa darajasi – talabalar guruhi yoki kichik jamoalarda psixologik kuzatuv va maslahat ishlarini olib borish.

→ Talabalarning jamoaviy moslashuvi, ijtimoiy-psixologik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

4. Individual daraja – talaba, o‘qituvchi, ota-onasi yoki alohida shaxslar bilan ishslash.

→ Shaxsiy muammolarni yechishda eng samarali daraja bo‘lib, individual konsultatsiya va psixologik yordamni qamrab oladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Kaltaeva M.V. Oliy o‘quv yurtlarida psixologik xizmatni tashkil etishning tashkiliy darajalari. – Toshkent, 2018.

2. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.

3. Vygotckiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva: Pedagogika, 1996.

4. Yoldoshev S., Yo'ldosheva D. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
5. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. – Moskva: Pedagogika, 1989.
6. Bolotova A.K. Konsultativnaya psixologiya. – Moskva: Akademiya, 2006.
7. Karimova V.M. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ-4884-son, 2020-yil 6-noyabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida 577-son, 2019-yil 12-iyul.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 824-son, 2020-yil 31-dekabr.